



ASLIYATDAGI BADIY KONSEPTNING TARJIMADA AKS ETISHINI O'RGANISH METODI

Umidbek SAIDOV Shavkat o'g'li

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti

tayanch doktoranti

sasisuseso2784@gmail.com

ORCID: 0009-0009-0162-8784

Annotatsiya. XXI asr tarjimashunoslik nazariyasining oldida turgan chaqiruvlaridan biri bu kognitiv tadqiqotlar bilan bog'liq masalalardir. Ushbu maqolada shunday chaqiruvlardan biri bo'lgan badiiy tarjimadagi konseptaul transferni o'rganish masalalariga bag'ishlangan mulohazalarim bayon etilgan. Tarjimashunoslikning kognitiv masalalari anchagina keng tushuncha, ammo maqolada ikkita asosiy masalaga e'tibor qaratilgan. Birinchidan, asliyat matnida yashirin bo'lgan meta tushunchani aniqlash uchun qaysi konseptual nazariyaga murojaat qilish kerakligi masalasi. Ikkinchidan, aniqlangan meta tushunchani tahlil qilish va o'rganish uchun qaysi metoddan foydalanish mumkinligi ko'rib chiqilgan. Umid qilamizki, bu maqola tarjimashunoslik sohasida bundan keyingi konseptaul trafer bilan bog'liq tadqiqotlar uchun ham nazariy, ham metodologik asos bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: tarjimashunoslik, kognitiv tadqiqot, badiiy tarjima, konseptual transfer, asliyat, meta tushunchasi.



Kirish

Ma'lumki, tarjimashunoslikda tarjima bilan bog'liq turli masalalar o'rganiladi. Tarjimaning kommunikativ maqsadga mosligi, tarjimaning aniqligi, ekvivalentlik masalasi, madaniy transfer va hokazolar. Bu kabi masalalar shubhasiz muhim, lekin nazarimizda, tadqiqotlar uchun fundamental masala bu "tarjima o'zi nima?" degan savol. Bu masalaning tarjimashunoslik nuqtai nazaridan ahamiyati shuki, ushbu savolga javob berish orqali tadqiqotning aniqlik darajasi belgilab olinadi. Amalga oshirilishi nazarda tutilgan tadqiqotning turi ham uslubi ham va uning xususiyatlari ham tarjimaga qanday ta'rif berishimiz va qanday munosabatda bo'lishimizga bog'liq. Shunday ekan, birinchi bo'lib shu muhim savolga to'xtalib o'tsak. Buning uchun XX asrning ikkinchi yari va XXI asrning birinchi yarimida ijod qilgan yetakchi tarjimashunoslar va tilshunoslarining fikrlariga murojaat qilamiz.

Natiya va mulohazalar

Nikolay Garbovskiy tarjimani qayta ifodalash, deb ataydi. Leonid Barxudarov esa tillararo transformatsiya, deb hisoblaydi. Andrey Fyodorov tarjimani asliyatga qaratilgan nutq mahsuli, deb ta'riflaydi. Aleksandr Shveytserning fikricha tarjima bu bir taraflama yo'naltirilgan ikki bosqichli tillararo va madaniyatlararo muloqot jarayoni. Yakov Retsker esa asliyatdagi mazmunni to'laqonli aniq yetkazish vositasi, deb aytadi. Venedikt Vinogradov tarjimani so'z sa'natining o'ziga xos mustaqil turi, deydi. Ryurik Minyar-Belaruchev uchun tarjima bu ikki til vositasidagi muloqot [1], deb fikrlaydi. G'aybullar Salomov adabiy-estetik hodisa, so'z san'ati, deb hisoblaydi [2]. Ergash Ochilov turli tillarda muloqot qiluvchi kishilar o'rtasidagi muloqot vositasi, deb biladi [3]. Ko'rib turganimizdek tarjimaga bo'lgan qarashlar bir-biridan farq qiladi, ammo bu qarashlarning negizida ikki xil munosabat yotibdi:



birinchidan, tarjimaning aynan qaysi turi nazarda tutilayotganiga qarab ham unga berilayotgan ta'rif farqlanadi. Yozma tarjima uchun bir ta'rif, og'zaki tarjima uchun boshqa ta'rif beriladi;

ikkinchidan, tarjimaga jarayon sifatida qaralyaptimi yoki hodisa? Agar tarjimani jarayon sifatida ko'rsak, unda maqsadni izlaymiz, shu sababdan ham uni vosita sifatida ko'rishni boshlaymiz. Agar hodisa deb bilsak, unda qayta ifodalash, transformatsiya, san'at kabi xususiyatlari ko'zga tashlanadi.

Demak, bizni qiziqtiradigan tarjima turi yozma, uslubi esa badiiy. Tarjimaning aynan badiiy uslubi tarjima nazariyasining shakllanishida fundamental ro'l tutgan ekanligini yodda saqlash lozim. Badiiy tarjima matnlarining tahlili natijasida tarjimashunoslik nazariyasini paydo bo'lishi haqida G'yabulla Salomov shunday yozadi: "XX asrning 20-80-yillarida tarjima nazaariyasining mustaqil filologik fan sifatida shakllanishida klassik adabiyot namoyondalarining tarjima san'ati, tarjima printsiplari va o'z asarlarining boshqa tillarga qilingan tarjimalar haqida bildirgan fikr va mulohazalari g'oyat katta ahamiyatga ega" [4]. Badiiy tarjimaning ajralmas qismi bo'lgan badiiy matn o'zining murakkabligi, ko'p qatlamligi bilan ajralib turishi haqida Ergash Ochilov shunday fikr bildiradi: "Badiiy matn – san'at namunasi. Badiiy matnda har bir so'z uzukka qo'yilgan ko'zdek chertib tanlanadi va ko'pincha bir necha ma'no qirralariga ega bo'ladi hamda bir necha badiiy vazifani bajaradi. She'riy asarlarda-ku hatto harflar takroriyu ularinng jarangli-jarangsizligigacha hisobga olinadi. Badiiy matnning asosiy belgilari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin: 1) obrazlilikka asoslanadi; 2) badiiy tasvir vositalariga boy bo'ladi; 3) turli uslubda yaratiladi; 4) tilning barcha boyliklaridan keng foydalanadi; 5) ta'sirchanlik kasb etadi" [3]. Badiiy matnlarning murakkabligi uni tarajima obyekti sifatidagi qiymatini oshiradi va shu bilan bog'liq ko'pgina masalalarni yuzaga keltiradi. Masalan til va madaniyat tafovutlari, semantik noaqlik, stilistik farq, ma'no ko'chishi kabilar.



Ma'lum bo'lganidek, tarjimaga ham jarayon sifatida ham hodisa sifatida yondashish mumkin. Fikrimizcha, asliyat matni va badiiy tarjima bilan bog'liq kognitiv jarayonlarni tushunish uchun tarjimani transfer (ma'no ko'chish) hodisasi sifatida ko'rish kerak. Badiiy tarjimani transfer sifatida ko'rish "asliyat matnida nima bor edi va tarjimaga nima ko'chib o'tdi?" degan savolni qo'yish imkonini beradi. Bu esa tarjimaning kognitiv tahlili uchun asosiy savol deb hisoblaymiz.

Badiiy tarjima bu transfer. Lekin, asliyat matnida mavjud nimalar tarjimaga ko'chib o'tishi mumkin? Agar lingvosemantik darajada tahlil qilsak gaplar, iboralar, maqollar ortida yashirin bo'lgan semantika, metasemiotik darajada tahlil qilsak meta tushuncha ya'ni konsept ko'chib o'tishi mumkin. Badiiy matndagi konsept bo'lgani uchun badiiy konsept deb ataymiz. Bizni qiziqtiradigan masala aynan badiiy konsept bilan bog'liq. Ya'ni asliyat matnidagi muallif konsepti tarjimada aks etganmi yoki yo'q? Badiiy tarjimani kognitiv tahlil qilishdan maqsad ham muallif matnda bergan dunyo qarash tarjimon tomonidan ilg'ab olinganmi yoki yo'qligi aniqlashdan iborat. Bunday maqsad oldimizga yana bir masalani qo'yadi "badiiy matndagi konseptni aniqlashda qaysi konseptual nazariyaga murojaat qilish kerak?". Bunday savol paydo bo'lishiga sabab, XX asrdagi tilshunoslarning mehnati natijasida konseptning bir necha turlari aniqlangan; ssenariy, skript, freym, geshtalt. Oldimizga qo'yan maqsadga yetish uchun aynan qaysi konsept turi bilan ishlash kerak ekanligini tushunish uchun avval ular bilan tanishib chiqsak.

Ssenariy – biror bir tipik hodisaga xos o'zaro bog'liq faktlarning ularning uzviyligini aks ettiruvchi namunaviy shakl misolida yoritilishidir, deb ta'fir beradi Shahriyor Safarov. Ushbu namunaviy struktura ma'lum voqeylik bo'lagiga oid harakatlar, xolatlar uzviy munosabatlaridan iborat (masalan, restoranda tushlik, dars jarayoni, institutga qabul, muzey ziyorati va hokazo.) Ssenariy tushunchasini kognitologiyaga oid tadqiqotlar doirasiga birinchilardan bo'lib sun'iy intellekt bo'yicha mutaxassislar R.Shenk va R.Ablsonlar kiritishgan va ularning talqinicha,



ushbu tushuncha voqealar ketma-ketligini, ularning o'zaro bog'lanishini ko'rsatish uchun zarur [5].

Demak, konseptning ssenariy strukturasi bizga biron bir hodisa yoki voqealar bilan bog'liq harakatlar ketma-ketligini tushunish yoki anglash imkonini beradi. Bunday turdagi konsept nima, qachon va qayerda va qanday tartibda sodir bo'lganini tushunish va shu holatni huddi "sahnalashtirilgan" voqeylik sifatida ongimizda proyeksiyalashtirishga va sturkturalashga yordam beradi.

Skript – (inglizcha script so'zining tub ma'nosi "qo'lyozma, yozuv") namunaviy konseptual tuzilmalarning bir turi sifatida qaralib, u inson tafakkurida aks etayotgan borliqdagi voqealarning me'yoriy ketma-ketligi namunasi. Skript tarkibiy tuzilishi jihatidan ssenariyga juda ham yaqin turadi, xatto ayrim hollarda uni to'lig'icha takrorlaydi. Skript tarkibiga kiruvchi voqealarning sabab-oqibat munosabatlari asosida, tizimiy bog'lanishi, ketma-ketligi hamda hamda ushbu voqealarning stereotip takrorlanuvchanlik xususiyati uning asosiy tavsifiy belgisi sifatida qaraladi [5].

Agar skript tushunchasini kinomatografiya yoki dasturlash sohasidan tilshunoslik sohasiga o'zlashtirilgan termin ekanligini hisobga olib tahlil qilsak, yuqorida keltirilgan ta'rif ma'lum darajada tushunarlik bo'ladi. Ya'ni kinomatografiyada yoki dasturlash sohalarida bu termin voqealar ketma-ketligi, nimalar va qanday tartibda sodir bo'lishi sahna tomoshasidek bitib qo'yilgan bo'lishini nazarda tutadi. Bunday sahna tomoshasida ishtirokchilarning nima deyishi, qanday o'zini tutishi va shu sahna bilan bog'liq barcha tafsilotlar qoliplashtirib qo'yilgan bo'ladi. Bu terminni tilshunoslikda inson tafakkuridagi til bilan bog'liq sahnalardagi strukturani ifodalash uchun o'zlashtirilgan termin ekanligini hisobga olsak, bu termin nima uchun ssenariyga yaqin ekanligini va nimasi bilan farq qilishini osongina ilg'ab olish mumkin. Konseptning ssenariy strukturasi asosiy e'tibor



holatdagi voqealar ketma-ketligi bilan bog'liq strukturaga qaratilsa, skriptda esa, ana shu holatdagi muloqot bilan bog'liq strukturaga e'tibor qaratiladi.

Freym – sun'iy intellekt va kognitiv fanlarda bilimlarni ifodalash uchun ishlatiladigan ma'lumotlar tuzilmasi yoki qolip. U o'z ichiga doimiy elementlar va ma'lum bir vaziyat, obyekt yoki hodisani tasvirlash uchun ma'lumot bilan to'ldirilgan slotlarni oladi [5]. Masalan, freym xonani tasvirlash uchun ishlatilishi mumkin, u yerda devorlar, oynalar, eshiklar va boshqa elementlar ko'rsatiladi. Ma'noni ma'lum bir vaziyat (ssena) bilan bog'lab izohlanadigan semantikaning yangi yo'nalishi **freym semantikasi** deb nomlanadi [6].

Ya'ni freym bu nafaqat ma'lum bir tushuncha bilan bog'liq bilimlar va tasavvurlar strukturasi, balkim, o'sha tushuncha bilan bog'liq barcha vaziyat va holatlarni ham o'z ichiga oladi degan nazariyaga asoslangan konsept turi. Freymga ko'ra biron bir so'z va shu so'z bilan bog'liq barcha tushunchalar, tasavvurlar semantik maydon ko'rinishida ongimizda mavjud bo'ladi.

“*Geshtalt* – olmoncha gestalt (obraz, struktura, yaxlit shakl) ma'nosini anglatadi. Ushbu tushuncha ruhiy tuzilmalar, obrazlarning o'ziga xos yaxlitlikni ta'minlovchi belgi va xususiyatlarning umumlashmasini anglatadi. Geshtalt nazariyasiga ko'ra mavjud bog'liklar asosida yuzaga keladigan yaxlitlik (umumiylik) avval alohida bo'laklar ko'rinishidagi elementlarning keyingi jamlanishidan iborat bo'lmasdan, balki ushbu yaxlitlikning ichki (strukturaviy) qonuniyatlari bilan belgilanadi. Geshtalt nazariyasiga ko'ra voqeylikni idrok etish va ruhan his etish yaxlitlikni “ko'rish”dan boshlanadi” [6].

Demak, bilish va anglash jarayonida tafakkurimizda idrok obyekti haqida yaxlit su'ratni yaratishga intilish bu geshtalt. Bunday yaxlitlik ham deduktiv ham induktiv bilimlarga bir vaqtning o'zida murojat qilish natijasida yuzaga keladi. Ya'ni, Safarovning so'zi bilan aytganda, “bilish jarayonida yaxlit va uning bo'laklari



o'rtasidagi jonli aloqani e'tirof etish geshtalt nazariyasi tamoyillari va tahlil uslublarini inkor qilmaydi" [6].

Yuqorida 4 turdagi konseptaul nazariya bilan tanishib chiqdik. Fikrimizcha, aynan geshtalt nazariyasi asliyat badiiy matndagi konseptni o'rganish uchun eng ma'quli. Sababi, ssenariy va skript situativ aniq bir holat bilan bog'liq bilimlarni o'rganishga qaratilgan. Freym esa aniq bir holatga bog'lanmagan bo'lsada, lekin, aniq bir tushuncha doirasida mavjud barcha sistem-struktur bilimlarni tushunishga qaratilgan. Ulardan farqli geshtalt inson tafakkurida mavjud yaxlit manzarani tushunishga yordam beradi. Har qanday badiiy matn bu muallif tafakkuridagi badiiy manzaraning aksi deb hisoblasak, bu manzara ma'lum bir butunlikka ega bo'lishi shart. Bunday butunlik matnda turli lisoniy darajalarda aks etgan bo'ladi. Undagi lisoniy birliklarning mantiqiy tahlili esa matnda aks etgan muallifning individual badiiy manzarasini aniqlashga yordam beradi. Buning uchun esa statistik tahlil metodi ayni muddao deb hisoblaymiz. Statistik tahlil metodi ma'lumotlarni yig'ish, tasniflash, tahlil qilish va natijalarni talqin qilish kabi jarayonlarni o'z ichiga oladi. Quyida batafsil ko'rib chiqamiz.

Birinchi bo'lib ma'lumot yig'ish jarayoni. Bunda lingvistik qat'iy saralash metodi asosida asliyat matnida mavjud barcha takroriy birliklar aniqlanib jamlanadi. Asosiy e'tibor qayta-qayta uchraydigan lisoniy elementlarni saralash va ular asosida kartoteka shakillantirishga qaratiladi.

Ikkinchi bo'lib tasniflash jarayoniga o'tamiz. Bunda shakillantirilgan kartotekadagi lisoniy birliklarni guruhlariga ajratib chiqamiz. Bu jarayon matnda mavjud turli g'oya bo'laklarni aniqlash va ularni korpuslarga bo'lib chiqish imkonini beradi.

Uchinchi bo'lib tasniflangan korpuslardagi lisoniy birliklarning takroriylik soniga qarab reyting shakillantiramiz va matnda eng ko'p hamda eng kam uchragan



g'oya va fikrlari ajratib olamiz. Bu jarayon muallifning ongida qanday fikr va g'oyalar dominant bo'lganini aniqlashga yordam beradi.

To'rtinchi bo'lib deduktiv tahlilga murojaat qilamiz. Bunday turdagi mantiqiy tahlil shakllantirilgan korpuslardagi reyting ma'lumotlari va syujet o'rtasidagi sistem bog'liqlikni aniqlashga qaratiladi. Buning uchun korpuslar o'rtasidagi stukturaviy bog'liqlik matndagi syujet orqali o'rganiladi.

Beshinchi bo'lib to'rtinchi bosqichdagi natijalar talqin qilinadi. Bu esa, o'z navbatida, matndagi mavjud yaxlit su'ratni (badiiy konseptni) aniqlash imkonini beradi.

Xulosa

Har qanday badiiy tarjimani transfer hodisasi sifatida talqin qilish mumkin. Bunday yondashuvda aslyat matnidagi mavjud nimadir tarjimaga qanday ko'chib o'tgani markaziy masalaga aylanadi. Ushbu maqolada badiiy tarjimada konsept transferi masalasi doirasida aslyat matnidagi muallifning individual olam manzarasini aniqlash uchun eng maqul yondashuv geshtalt nazariyasiga murojaat qilish degan xulosaga keldik. Bu nazariyaga ko'ra matn muallif tafakkurida yaxlit bir su'rat shakilda namoyon bo'lgan va shu tarzda asarda aks etgan degan qarash bilan yondashamiz. Lekin bu yaxlitlik matnda turli lisoniy birlik va vositalar ortida yashiringan bo'ladi. Ana shu yashirin yaxlitlikni aniqlash maqsadida besh bosqichli statistik metodga murojaat qilish maqsadga muvofiq deb fikrlaymiz. Statistik tahlil metodi bo'yicha bajarilgan tahlil natijasida matnda yashirin bo'lgan muallifning individual olam manzarasini aniqlash va ushbu olam qadai lisoniy birliklar va vositalar yordamida yaratilganini bilish mumkin bo'ladi. So'ng esa, erishilgan ma'lumotlar asosida tarjima matnining tahliliga o'tish va aslyatdagi konsept tarjimada qanchalik aks etganini o'rnatish imkoni paydo bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:



- [1] Гарбовский Н.К., Теория перевода: Учебник., Москва: Изд-во Моск. ун-та, 2007, p. 544 с..
- [2] Salomov G., Tarjima nazariyasiga kirish, Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2016, p. B 3..
- [3] Ochilov E., Tarjimashunoslikning nazariy masalalari, Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik instituti, 2014, p. B 6.
- [4] Salomov G', Til va tarjima, Toshkent: "Fan", 1966, p. B 6..
- [5] Safarov. SH. , Kognitiv tilshunoslik, Jizzax: "Sangzor" nashiryoti, 2006, p. B. 35..
- [6] Abduxamidova D.A., *Yapon tilida qarindosh urug'chilik bilan bog'liq birliklarda* "家[IE]-UY, Toshkent: Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti, 2023.

METHOD OF STUDYING THE REFLECTION OF THE ARTISTIC CONCEPT IN THE ORIGINAL IN TRANSLATION

Saidov UMIDBEK Shavkat ogli

Abstract. *One of the challenges facing the theory of translation studies in the 21st century is issues related to cognitive research. This article presents my considerations on the issues of studying conceptual transfer in literary translation, which is one of such challenges. Cognitive issues in translation studies are a rather broad concept, but the article focuses on two main issues. First, the question of which conceptual theory should be used to identify the meta-concept hidden in the original text. Second, the method that can be used to analyze and study the identified meta-concept is considered. We hope that this article will serve as both a theoretical and methodological basis for further research on conceptual transfer in the field of translation studies.*



Keywords: translation studies, cognitive research, literary translation, conceptual transfer, originality, meta-concept.

MAVZUSIDAGI XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA